



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2026-YIL – MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2026-yil 14-yanvar, № 8 (9179)

Chorshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.



XAVFSIZLIK VA MUDOFAANI YANADA MUSTAHKAMLASH VAZIFALARI MUHOKAMA QILINDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Shavkat Mirziyoyev raisligida 13-yanvar kuni Xavfsizlik kengashining mamlakatimiz harbiy xavfsizligi va mudofaasini mustahkamlash masalalari bo'yicha kengaytirilgan yig'ilishi bo'lib o'tdi.



Tadbirda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Xavfsizlik kengashi, Vazirlar Mahkamasi a'zolari, Qurolli Kuchlar tarkibiga kiruvchi vazirlik va idoralar rahbarlari, harbiy okruglar

qo'mondonlari, harbiy-ma'muriy sektorlar rahbarlari, boshqa idoralar va jamoat tashkilotlari vakillari ishtirok etdi. O'tgan yillarda mamlakatimiz mudofaa qobiliyatini mustahkamlash bo'yicha

salmoqli ishlar amalga oshirildi. Milliy armiyamiz zamonaviy qurol-yarog' va texnika bilan ta'minlanmoqda. Harbiy xizmatchilarning jangovar va ma'naviy-ruhiy tayyorgarlik darajasi izchil

oshirib borilmoqda, mudofaa sanoatining salohiyati mustahkamlanmoqda. Mudofaa vazirligi qo'shinlarida yangi taktik usullar joriy etilib, mashg'ulotlar soni va shiddati 1,5 barobarga oshirildi,

uchuvchisiz uchish apparatlari bo'linmalari va mutaxassislar tayyorlash markazlari tashkil etildi. Armiyani raqamlashtirish bo'yicha boshlangan ishlar natijasida axborot

xavfsizligi, boshqaruv va ko'rsatilayotgan xizmatlar samaradorligi sezilarli darajada oshdi.



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Matbuot xizmati suratlari.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QUROLLI KUHLARI TASHKIL ETILGANINING 34 YILLIGI VA VATAN HIMOYACHILARI KUNI MUNOSABATI BILAN BAYRAM TABRIGI

Hurmatli askar va serjantlar, ofitser va generallar!

Muhtaram Qurolli Kuchlarimiz faxriylari!
Qadrlı vatandoshlar!

Avvalo, siz, azizlarni, ko'p millatli butun xalqimizni O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 34 yilligi hamda Vatan himoyachilari kuni bilan samimiy muborakbod etaman.

Ushbu qutlug' ayyomda o'z hayotini Vatan himoyasidek g'oyat sharaflı va mas'uliyatli ishga bag'ishlagan, harbiy qasamyodiga sodiq qolib, mamlakatimiz mustaqilligi va hududiy yaxlitligini ko'z qorachig'idek asrab kelayotgan ona yurt posbonlariga yana bir bor yuksak hurmat va ehtirom bildiramiz.

Ayni vaqtda Vatan oldidagi yig'itlik burchini bajarish chog'ida mardlarcha halok bo'lgan qahramon o'g'lonlarimizning xotirasiga chuqur hurmat bajo keltiramiz.

Bugungi kunda xalqimiz Yangi O'zbekistonni barpo etish yo'lida ulkan yutuq va marallarni qo'lga kiritmoqda. Hayotimizning barcha soha va tarmoqlarida amalga oshirilayotgan tom ma'nodagi tarixiy o'zgarishlarda shavkatli Qurolli Kuchlarimizning, sizlarning ham munosib hissangiz bor, desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz.

Biz sizlarni buyuk ajdodlarimiz an'analarning shonli davomchilari deb bilamiz va sizlardek farzandlarni tarbiyalab bergan ota-onalarga, harbiy xizmat davomida barcha quvonch va tashvishlarni ular bilan baham ko'rib kelayotgan oila a'zolariga o'zining samimiy minnatdorigini izhor etaman.

Qadrlı do'stlar!

Keyingi yillarda "O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida ortga qaytmas islohotlarimizning mustahkam kafolatlaridan biriga aylanib borayotgan Qurolli Kuchlarimizning harbiy qudratini oshirish bo'yicha keng ko'lami

ishlarni amalga oshiryapmiz. Jumladan, boshqaruv va ta'minot tizimi takomillashtirilib, zamonaviy axborot texnologiyalari asosida modernizatsiya qilinmoqda, qo'shinlarimizning jangovar saflari yangicha ta'lim va tarbiya olgan malakali ofitser va serjantlar bilan to'ldirilmoqda.

Shaxsiy tarkibning tayyorgarlik darajasi, harbiy xizmatchilarning kasbiy, intellektual va ma'naviy salohiyati izchil yuksaltirib borilmoqda. Qurolli Kuchlarimiz zamonaviy qurol-yarog' va harbiy texnika bilan bosqichma-bosqich ta'minlanmoqda.

Yoshlar o'rtasida harbiy xizmatga qiziqishni oshirish, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, xalq bilan armiya o'rtasidagi mustahkam birlik va jipslikni yanada kuchaytirishga qaratilgan samarali ishlarimiz qat'iy davom ettirilmoqda.

Hozirgi vaqtda dunyoning siyosiy va harbiy xaritasida qanday shiddatli o'zgarishlar yuz berayotganini barchamiz ko'rib, anglab turibmiz.

Turli mintaqalarda geosiyosiy vaziyat tobora murakkablashib, ziddiyat va qonli to'qnashuvlar kuchaymoqda. Zamonaviy texnologiyalar, yangi avlod qurol-yarog'ları paydo bo'lmoqda, jangovar harakatlar olib borishning strategiya va taktikasi yanada takomillashmoqda.

Mavjud vaziyatni hisobga olgan holda, biz kelgusida jang va boshqaruv usullarini zamon talablari asosida yangilaymiz, yuqori malakali harbiy kadrlarni tarbiyalashga alohida e'tibor qaratamiz.

Ayniqsa, harbiy xizmatchilarning jangovar ruhi va jismoniy tayyorgarligini muntazam oshirib borish, ularning qalbidagi vatanparvarlik tuyg'usini kuchaytirish biz uchun ustuvor vazifa bo'lib qoladi. Chunki har qanday kurashning taqdirini shaxsiy

tarkibning bilim va malakasi, iroda va qat'iyati, o'ziga bo'lgan ishonchi, mardona fazilatları hal qiladi.

Milliy armiyamizni zamonaviy qurol-yarog' va harbiy texnika, jumladan, sun'iy intellekt asosida robotlashtirilgan majmualar bilan ta'minlash, qo'shinlarni boshqarish hamda qaror qabul qilish jarayonlariga ilg'or axborot texnologiyalarini yanada keng joriy etish ham doimo e'tiborimiz markazida bo'ladi.

Harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolarini ijtimoiy himoya qilishga doir ishlarning samarasini oshirib, ularning turmush farovonligini yuksaltirishga qaratilgan ishlarni kuchaytiramiz. Bu borada davlat va fuqarolik institutlari hamda keng jamoatchilikning faol ishtirok etishiga alohida ahamiyat qaratamiz.

Har bir harbiy xizmatchi xalq bilan armiya – bir tanu bir jon ekanini, uning ortida 38 millionlik xalq tog'dek tayanch bo'lib turganini doimo his etishi, shundan cheksiz kuch, ruh va madad olishi kerak.

G'ayrat-shijoatda tengsiz bo'lgan harbiylarimiz yovlar oldida hech qachon bosh egmagan qo'rqmas va o'tyurak ajdodlarimizning o'lmas merosini o'rganib, ulardan ibrat va saboq olib, Vatan oldidagi muqaddas burchini bundan buyon ham sharaflı bilan adol etadilar, deb ishonaman.

Aziz Vatan himoyachilari!

Mana shu hayajonli damlarda har biringizni bugungi bayram bilan yana bir bor chin dildan qutlab, sizlarga va oila a'zolaringizga mustahkam sog'liq, baxt-saodat, davlatimizning mudofaa qobiliyatini mustahkamlash borasidagi oliyjanob faoliyatingizda ulkan muvaffaqiyatlar tilayman.

Jonajon Vatanimiz himoyasi yo'lida hech qachon tolmang, yutuq va zafar sizlarga doimo yor bo'lsin!

Shavkat MIRZIYOYEV,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti,
Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni

OLIIY BOSH QO'MONDON BO'LINMALAR TAYYORGARLIGINI YUQORI BAHOLADI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Shavkat Mirziyoyev 13-yanvar kuni Mudofaa vazirligi tizimidagi obyektlar bilan tanishdi.

Davlatimiz rahbari dastlab Chirchiq aviatsiya ta'mirlash zavodiga tashrif buyurdi.

Prezidentga korxonada amalga oshirilgan keng ko'lami sertifikatliyadan o'tkazilgan bo'lib, ishlab chiqarish yuqori saviyada tashkil etilgani, xalqaro standartlar va ishlab chiqaruvchi tomonidan belgilangan talablarga muvofiqligi tasdiqlangan. Bu yerda G'arb aviatsiyasining zamonaviy modellari, shu jumladan,

Zavod negizida MDH va mintaqamizda yagona bo'lgan

"Airbus" vertolyotlariga texnik xizmat ko'rsatish markazi ishga tushirilgan.

Markaz Fransiyaning "Airbus" kompaniyasi tomonidan rasmiy sertifikatliyadan o'tkazilgan bo'lib, ishlab chiqarish yuqori saviyada tashkil etilgani, xalqaro standartlar va ishlab chiqaruvchi tomonidan belgilangan talablarga muvofiqligi tasdiqlangan. Bu yerda G'arb aviatsiyasining zamonaviy modellari, shu jumladan,

"H-125", "H-215" va "H-130" rusumli vertolyotlar uchun servis va ta'mirlash ishlarining to'liq zanjiri yo'lga qo'yilgan.

Markaz O'zbekistonni "Airbus" vertolyotlariga texnik xizmat ko'rsatish va ularni ekspluatatsiya qilish bo'yicha muhim mintaqaviy xabga aylantirish imkonini beradi.

Mamlakatimiz yetakchisi markaz imkoniyatlari bilan tanishdi va mutaxassislar bilan muloqot qildi.



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining F A R M O N I

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QUROLLI KUHLARI TASHKIL ETILGANINING 34 YILLIGI HAMDA VATAN HIMOYACHILARI KUNI MUNOSABATI BILAN HARBIY XIZMATCHILAR VA HUQUQNI MUHOFAZA QILISH ORGANLARI XODIMLARIDAN BIR GURUHNI MUKOFOTLASH TO'G'RSIDA

Mamlakatimiz mudofaa qudratini mustahkamlash, Qurolli Kuchlarimiz jangovar salohiyatini yuksaltirish, davlat xavfsizligi va chegaralarimizni daxlsizligini ta'minlash, professional milliy armiyani shakllantirish, harbiy xizmat nufuzini yuksaltirishdagi katta xizmatlari, jamiyatda tinchlik va barqarorlikni, xalqimiz osoyishtaligini saqlash, fuqarolarning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini himoya qilish borasidagi ibratli faoliyati, sharaflı va muqaddas burchini bajarishda mardlik va jasorat ko'rsatgani, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, yuqori malakali kadrlarni tayyorlashga qo'shgan munosib hissasi uchun quyidagilar mukofotlansin:

"Mardlik" ordeni bilan

Ahmedov Sherzod Hurmatjon o'g'li – O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlari harbiy xizmatchisi

Vapayev Sardarbek Rajabbayevich – O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi harbiy qism komandiri

Madiyev Hakim Abdumurat o'g'li – O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlari harbiy xizmatchisi

Xudayberganov Xurshid Xamdamovich – O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi harbiy qism guruh mutaxassisi



Surur

Millat matonatnomasin jonga joyla,
Jonga joyla, jon birla iymonga joyla.

Bulbulga ham bo'lgay oshyon go'zal Vatan,
O'z yurtini aylar qurbon go'zal Vatan.

Men faxr etsam arzgaydir zamonamdan,
Qurdik yangi davru davron, go'zal Vatan.

Bu kunlarga osonlikcha yetmadik biz,
Bermish qancha jonni qurbon go'zal Vatan.

Dunyo davlatlarin gurras qaratolgan,
Sohibkarvon, sohibsarbon, go'zal Vatan.

Vatandoshim yurtning fazlu kamolin ko'r,
Jahon ichra yangi jahon, go'zal Vatan.

Millat matonatnomasin jonga joyla,
Bu yangi jon, bu yangi qon, go'zal Vatan.

Go'zal Vatan – mahalla-ko'y, bog'u bo'ston,
Yangi kelinchakday jonon, go'zal Vatan.

Yangi orzu-niyatlardan charog'ondir,
Ming-ming yangi uy, xonadon, go'zal Vatan.

Sen jaholat dunyosin ko'p uyg'otgandir,
Uyg'ot yana, yana uyg'on, go'zal Vatan.

Kirsang islom tamaddunin qasri aro,
Bunda aylar xatni Qur'on go'zal Vatan.

Nasib etsa quchgaymiz ham samolarni,
Zangi ko'ragoniydan shon, go'zal Vatan.

Yulduzlardan xabar olib kelgaydirmiz,
Bobomeros, boboosmon – go'zal Vatan.

To'qqiz yuz ming chaqaloqqa beshik olgan,
Onajoni ham momojon, go'zal Vatan.

Vatan emas bukin faqat shahru kentlar –
Har o'g'il-qiz, har qiz, o'g'lon go'zal Vatan.

Barchamiz ham bu dunyoga mehmonlarmiz,
Go'zal Vatan, mangu mezbom, go'zal Vatan.

Hech bir millat bir millatni kamsitmasin,
Bo'lmasin hech xonavayron, go'zal Vatan.

Barcha ellar, xor elatlar bo'lsin obod,
Yashnasin to ilmu irfon go'zal Vatan.

Yer yuzida bitsin jangu jarohatlar,
Qolsin faqat dorilamon go'zal Vatan.

Bu gaplarni bilgan bilar, bilmaslar ham
Mayli yursin shodu xandon, go'zal Vatan.

Birdam bo'lsin, yakdil odam avlodlari,
Bo'lsin yaxlit ro'yi jahon go'zal Vatan.

Cho'lpon go'zal Turkiston deb yig'lagandi,
Men kuylagum O'zbekiston – go'zal Vatan!

Sirojiddin SAYYID,
O'zbekiston xalq shoiri.

GO'ZAL VATAN

Senat qoʻmitasida



“O‘ZBEKISTON – 2030” STRATEGIYASI LOYIHASI MUHOKAMASI VA YECHIMINI KUTAYOTGAN MUAMMOLAR

Oliy Majlis Senatining Yoshlar, xotin-qizlar, madaniyat va sport masalalari qoʻmitasining navbatdagi majlisi boʻlib oʻtdi.

Yigʻilishda dastlab “Oʻzbekiston – 2030” strategiyasi loyihasi muhokama qilindi. Taʼkidlanganidek, ushbu Strategiyada belgilangan maqsad va koʻrsatkichlar har bir inson va oila hayotida yaqqol sezilishi lozim boʻlgan ustuvor vazifalar asosida qayta koʻrib chiqilib, takomillashtirilgan.

Xususan, ota-ona qaramogʻisiz qolgan bolalarni tarbiyalashda 100 foiz muqobil shakllarni joriy etish, “ayollar haftasi” orqali kambagʻallikdan chiqarilgan xotin-qizlar ulushini 70 foizga yetkazish, tadbirkor ayollarga ehtiyojmand xotin-qizlarni birlashtirish orqali ular kasbga va barqaror daromad manbaiga ega boʻlishiga erishish hamda 100 ming nafar xotin-qizning imkoniyatlarini oshirish kabi vazifalar koʻzda tutilgan.

Madaniyat va sport sohaslarida ham keng koʻlamli rejalar belgilanganini qayd etildi. Jumladan, madaniy meros obyektlarini saqlash uchun Davlat byudjetidan ajratiladigan mablagʻlarni 30 foizga oshirish, 2,5 mingga arxeologik ashyoni davlat katalogiga kiritish, 1,1 mln. muzey ashyosini raqamlashtirish rejalashtirilgan.

Sport sohasida esa xususiy sport markazlari, fitnes maydonlari va toʻgaraklar bilan hamkorlikni kuchaytirish orqali 7 – 35 yoshli aholining sport bilan muntazam shugʻullanish darajasini 40 foizga yetkazish, shuningdek, kamida 5 ming mahallada zamonaviy sport maydonchalarini barpo etish maqsad qilingan.

Strategiya loyihasida yoshlar bandligi masalalariga ham alohida eʼtibor qaratilgan. Jumladan, yoshlar oʻrtasida ishsizlik darajasini 15 foizdan 11 foizga tushirish, 2030-yilga qadar sanoat sohasini rivojlantirish hisobiga qoʻshimcha 400 ming nafar yoshni ish bilan taʼminlash choralarini nazarda tutilgan.

Shuningdek, Senatning tegishli qarori asosida voyaga yetmagan bolalar taʼminoti uchun aliment undirish va toʻlash tizimini takomillashtirish boʻyicha Vazirlar Mahkamasiga yuborilgan parlament soʻrovi natijalari ham muhokama qilindi.

Parlament soʻroviga berilgan javoblar tahlili natijasida ayrim masalalar toʻliq yechimini topmagan maʼlum boʻldi. Xususan, doimiy ish joyiga ega boʻlmagan yoki daromadni aniqlanmagan aliment toʻlovchilardan aliment undirish tartibini takomillashtirish, “Aliment toʻlovlari” davlat maqsadli jamʼarmasi hisobidan toʻlab berilgan mablagʻlarni qarzdorlardan undirish, shuningdek, “Bolalarga aliment undirish va oilani taʼminlashning boshqa shakllarining xalqaro tartibi toʻgʻrisida”gi Gaaga konvensiyasiga qoʻshilish masalalariga alohida eʼtibor qaratish zarurligi taʼkidlandi.

Kun tartibiga muvofiq 2030-yilga qadar Oʻzbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasi

ijrosi doirasida amalga oshirilayotgan ishlar ham tahlil qilindi.

Taʼkidlandiki, xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlarni taʼminlash, xotin-qizlarning iqtisodiy hamda ijtimoiy sharoitlarini yaxshilashga qaratilgan 15 ta normativ-huquqiy hujjat qabul qilingan.

Milliy kadrlar zaxirasida xotin-qizlar salmogʻi avvalgi yillardagiga nisbatan 2 barobar oshirilib, 27 foizga yetgan. “Rahbar ayollar maktabi” oʻquv dasturining 4 ta mavsumi yakunlanib, unda jami 244 nafar xotin-qiz oʻqitilib, ulardan 60 nafarining lavozimi oʻsganligi qayd etilgan.

2025-yilda xotin-qizlarning 12,4 mlrd. soʻmlik 21 ta startap loyihasi qoʻllab-quvvatlangan. Shuningdek, siyosiy partiyalar tomonidan jamiyatda “ayol siyosatchi” obrazini shakllantirishga qaratilgan 105 tadan ortiq targʻibot tadbirlari oʻtkazilib, ularga 27 ming nafardan ziyod aholi jalb etilgan.

Agrar sektorda xotin-qizlarning mehnat bozoridagi ishtirokini kengaytirish, iqtisodiy imkoniyatlarini oshirish maqsadida 2025 – 2030-yillarga moʻljallangan Gender tenglik strategiyasi ishlab chiqilib, amalga oshirilmoqda.

Byudjet mablagʻlarini rejalashtirishda gender yondashuvini joriy etish maqsadida maxsus gender indikatorlar ishlab chiqilib, ular barcha vazirlik va idoralarga byudjet dasturlarini shakllantirishda foydalanish uchun taqdim qilingan.

A y t i l g a n i d e k , mamlakatimizda xotin-qizlarni har tomonlama qoʻllab-quvvatlash boʻyicha olib borilayotgan ishlar xalqaro hamjamiyat tomonidan ham yuksak eʼtirof etilmoqda. Xususan, Parlamentlararo Ittifoqning Jenevada boʻlib oʻtgan 151-sessiyasida Oʻzbekiston parlamentlarning quyi palatalarida xotin-qizlar faolligi boʻyicha dunyoda 15-oʻrinni egallagan. Shuningdek, Ochiq gender maʼlumotlari indeksida Oʻzbekiston eng yaxshi 20 ta davlat qatoriga kirdi. Gender tenglik va boshqaruv indeksida esa mamlakatimiz 52-oʻrnini 103-oʻrindan oʻz oʻringa koʻtarib, 51 pogʻonaga yaxshiladi.

Majlisda davlat xizmatida xotin-qizlarni qoʻllab-quvvatlash, nodavlat notijorat tashkilotlari salohiyatini koʻtarish, gender siyosatini amalga oshirishda ular ishtirokini kengaytirish, shuningdek, tazyiq va zoʻravonlikdan jabrlanganlarni himoya qilish masalalariga alohida eʼtibor qaratish lozimligi taʼkidlandi.

Yigʻilishda xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini himoyasiga qaratilgan hukumatga kiritilgan takliflarning kelgusidagi ijrosini taʼminlash yuzasidan atroflicha va tanqidiy muhokama oʻtkazilib, tegishli aniq vazifalar belgilab olindi.

“Xalq soʻzi”.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisi boʻlib oʻtdi.

Unda zargarlik buyumlarini ishlab chiqaruvchilarni yanada qoʻllab-quvvatlashga, seysmik xavfsizlikni taʼminlash sohasiga zamonaviy, ilmiy va texnik yondashuvlarni qoʻllashga, davlat xizmatlarini koʻrsatish tizimini yanada takomillashtirishga, aholining yuqori sifatli tibbiy xizmat olish huquqlarining samarali himoyasiga, fitosanitar zararsizlantirishning zamonaviy usullarini joriy qilishga qaratilgan qator qonun loyihalari hamda Samarqand viloyatining ayrim shahar va tumanlari chegaralarini oʻzgartirishga doir masala koʻrib chiqildi. Shuningdek, parlament nazorati faoliyatiga doir masala ham muhokama markazida boʻldi.

Samarqand shahri hududi kengaytirilmoqda

Majlisda dastlab “Samarqand viloyatining Samarqand tumanini tugatish, Oqdaryo, Pastdargʻom, Toyloq tumanlari va Samarqand shahri chegaralarini oʻzgartirish toʻgʻrisida”gi palata qarori loyihasi koʻrib chiqildi.

Taʼkidlanganidek, Samarqandni “millionli shahar”ga aylantirish, zamonaviy arxitektura yechimlariga ega turarjoy va noturarbinolarni qurish, aholining uy-joylarga boʻlgan talabini toʻla qondirish, hududlarni infratuzilma bilan taʼminlash orqali aholiga munosib yashash sharoitini yaratish maqsadida Samarqand tumani alohida maʼmuriy-hududiy birlik sifatida tugatilmoqda.

Shundan kelib chiqib, Oqdaryo tumanidan 1 410,6 gektar, Pastdargʻom tumanidan – 1 242,3, Samarqand tumanidan – 13 308, Toyloq tumanidan 1 265,6 gektar yer maydonlari Samarqand shahri tarkibiga oʻtkazilmoqda.

Shahardan 518 gektar va Samarqand tumanidan 1 551 gektar yer maydoni Pastdargʻom tumani, Samarqand tumanining 28 295 gektar yeri esa Toyloq tumani tarkibiga oʻtkazilmoqda. Bunda shahar va tumanlar tarkibiga oʻtkazilayotgan yerlarning amaldagi yer fondi toifalari oʻzgartirilmagan. Ushbu chegaralar oʻzgartirilishi hisobiga Samarqand shahrining hududi 11,8 ming gektardan 28,9 ming gektarga kengayib, yangi loyihalar uchun imkoniyatlar yaratilmoqda. Bu orqali shahar aholisi 604 ming nafardan 882 ming nafargacha oshadi.

Majlisda chegaralarga oʻzgarishlar kiritish masalasi tegishli mahalla fuqarolar yigʻinlari, xalq deputatlarini Samarqand shahar, Oqdaryo, Pastdargʻom, Toyloq va Samarqand tumanlari Kengashlari hamda viloyat Kengashida muhokama qilinib, chegaralarning kartografik chizmasi va chegaralar chizigʻining tasnifi maʼqullangani qayd etildi.

Majlisda ushbu masala yuzasidan qizgʻin fikr-mulohazalar bildirildi.

Ravshan MAMUTOV,
OʻzLiDeP fraksiyasi aʼzosi:



– *Darhaqiqat, mazkur qaror loyihasi Samarqand shahar hududini kengaytirish, investitsiyaviy va turistik jozibadorligini oshirish, iqtisodiyot va sanoat tarmoqlarini rivojlantirish, hududda aholining yashash sharoitlarini yanada yaxshilashga qaratilgan. Qolaversa, Samarqand shahri viloyatdagi aholi eng zich joylashgan hudud hisoblanib, chegaralarining kengayishi shaharda aholi zichligini kamaytirish, transport qatnovini yaxshilash, tirbandliklarning oldini olish boʻyicha chora-tadbirlarni amalga oshirishga sharoit yaratib beradi.*

Majlisda mazkur masala yuzasidan qaror loyihasi deputatlar tomonidan qabul qilindi.

Zargarlik buyumlarini ishlab chiqaruvchilar qoʻllab-quvvatlanadi

Deputatlar yarimtayyor zargarlik buyumlarini Oʻzbekiston Respublikasi boʻxona hududidan tashqariga olib chiqish tartibini takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasini birinchi oʻqishda muhokama qilindi.

Mamlakatimizda zargarlik sanoatini rivojlantirishni qoʻllab-quvvatlash, Oʻzbekistonda ishlab chiqariladigan zargarlik buyumlarining ichki va tashqi bozorda raqobatbardoshligini taʼminlash hamda zargarlik buyumlari eksportini koʻpaytirishga qaratilgan keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, sohada eksportchilarni qoʻllab-quvvatlash, yarimtayyor zargarlik buyumlari bilan bogʻliq jarayonlarni takomillashtirishga doir choralarini koʻrish zarurati yuzaga kelmoqda.

Ushbu qonun loyihasi qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar, ulardan yasalgan zargarlik hamda boshqa buyumlarning noqonuniy aylanmasini kamaytirishga qaratilgan.

Qonun loyihasi bilan qimmatbaho metallardan tayyorlangan yarimtayyor zargarlik buyumlarini Oʻzbekiston Respublikasi boʻxona hududidan tashqariga olib chiqishda Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Davlat asilik

darajasi nazorati inspeksiyasining xulosasini olish nazarda tutilmoqda.

Qonun loyihasi deputatlar tomonidan birinchi oʻqishda qabul qilindi.

Shaharsozlikda yangi talablar

Majlisda bino va inshootlarning zilzilabardoshligi hamda seysmik xavfsizligini taʼminlash sohasida davlat nazorati va boshqaruvin yonada takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasi birinchi oʻqishda koʻrib chiqildi.

Qayd etilganidek, mamlakatimizda noqonuniy qurilishlarning oldini olish, aholining uy-joyga boʻlgan talabini qondirish hamda shaharsozlik sohasida huquqbuzarliklarni kamaytirish boʻyicha izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, vakolatli organlar ruxsatsiz oʻzboshimchalik bilan turarjoy binolarini qurish holatlari saqlanib qolayotgani, ayrim obyektlarda seysmik xavfsizlik talablariga toʻliq rioya qilinmayotgani sohadagi davlat boshqaruvin yonada kuchaytirishni taqozo etmoqda.


Ushbu qonun loyihasida koʻp kvartirali uy-joylarni ruxsatsiz qurganlik uchun javobgarlik choralarini kuchaytirish nazarda tutilmoqda. Jumladan, Maʼmuriy javobgarlik toʻgʻrisidagi kodeksga tegishli oʻzgartirishlar kiritilib, bunday huquqbuzarlik uchun maʼmuriy javobgarlik belgilanmoqda. Shuningdek, mazkur qoidabuzarlik takroran sodir etilgan taqdirda jinoiy javobgarlik belgilash taklif qilinaypti.

Shaharsozlik kodeksida esa “master reja” tushunchasi shaharsozlik hujjatlarining alohida turi sifatida mustahkamlanmoqda. Ushbu hujjat hududlarning aniq muammolarini bartaraf etish, shaharsozlik, ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik yechimlarni uygʻunlashtirish, shuningdek, hududlarni qisqa, oʻrta va uzoq muddatli rivojlantirishni rejalashtirishga yoʻl ochadi. Bundan tashqari, qonun loyihasida koʻpriklar va tunnelar, shuningdek, potensial xavfi yuqori boʻlgan obyektlarni loyihalashtirish va ular uchun beriladigan litsenziyalarning amal qilish muddatini cheklanmagan holda belgilash amaliyotini tugatish, qurilish-montaj ishlarini boshlashda xabardor etish tartibidan ruxsatnoma berish tizimiga oʻtish nazarda tutilmoqda.

Deputatlar tomonidan qonun loyihasi yuzasidan bir qator savollar oʻrtaga tashlandi.

Zuhriddin MAVLONOV,
“Adolat” SDP fraksiyasi aʼzosi:

– *Qonun loyihasi bilan “Oʻzbekiston Respublikasi aholisi va hududining seysmik xavfsizligini taʼminlash toʻgʻrisida”gi Qonunning 14-moddasidagi amalda seysmik faol zonalarda joylashgan obyektlar har oʻn yilda zilzilabardoshlikka doir instrumental-texnik tekshiruvdan oʻtkazilishi lozim, degan norma endilikda “bu muddat zaruratga koʻra” degan soʻz bilan oʻzgartirilmoqda. Bu kelgusida qurilish boʻyicha inspektorning istalgan obyektga borib, “zarurati boʻlyapti” degan vaj bilan tekshiruv oʻtkazishga, olib borilayotgan ishlarni toʻxtatishga, tekshiruv xarajatlari tadbirkorlik subyektlari zimmasiga yuklanishiga sabab boʻlib qolmaydimi?*



Qonun tashabbuskorlari bu boʻyicha atroflicha tushuntirish berib, bildirilgan takliflar qonun loyihasini ikkinchi oʻqishga tayyorlash jarayonida koʻrib chiqilishini maʼlum qildi.

Qizgʻin muhokamadan soʻng qonun loyihasi deputatlar tomonidan birinchi oʻqishda qabul qilindi.

Davlat xizmatlarini koʻrsatish tizimi yanada takomillashtirilmoqda

Majlisda davlat xizmatlarini koʻrsatish tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasi muhokama markazida boʻldi.

Mamlakatimizda biznesni boshlash, litsenziyalash va ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlarni olish jarayonlarini soddalashtirish, sohadagi qonunchilik hujjatlarini tizimlashtirish orqali normativ-huquqiy hujjatlar sonini qisqartirish borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Ushbu saʼy-harakatlari natijasida tadbirkorlik faoliyatini qisqa muddatda soddalashtirilgan tartibda boshlash amaliyoti yoʻlga qoʻyilib, bu jarayonda inson omili tubdan qisqartirildi.

Shu bilan birga, litsenziya va ruxsat berish tartib-taomillarini amalga oshirishda bir-birini takrorlovchi va byurokratik talablarni bekor qilish, arxiv tashkilotlarining huquqiy maqomi va faoliyatini tartibga solish, arxiv hujjatlarini elektron shaklda saqlashning asoslarini qayta koʻrib chiqish zarurati yuzaga kelmoqda.

Mazkur qonun loyihasida davlat xizmatlarini koʻrsatish tizimini yanada kengaytirish, davlat organlari va tashkilotlarida manfaatlar toʻqnashuvining oldini olish, ilgari qonuniy imkoniyat boʻlmagan ota ismini bolaga familiya sifatida berish amaliyotini joriy qilish nazarda tutilmoqda.

Shuningdek, “Oʻzarxiv” agentligi tizimini optimallashtirish, arxivning yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimining huquqiy asoslarini belgilash koʻzda tutilaypti.

Majlisda qonun loyihasida nazarda tutilayotgan normalar aholi va tadbirkorlik subyektlari uchun biznesni boshlashda oʻrtiqcha tartib-taomillardan oʻtish jarayonlarini bartaraf etish, arxiv tashkilotlarining huquqiy maqomi va faoliyatini tartibga solish, arxiv hujjatlarini elektron shaklda saqlashning asoslarini takomillashtirishga xizmat qilishi qayd etildi.

Shu bilan birga, loyihadagi ayrim normalar boʻyicha aniqlashtiruvchi savollar koʻtarildi.

Dilmurod ARTIQOV,
OʻzLiDeP fraksiyasi aʼzosi:

– *Qonun loyihasi bilan “Biznesga litsenziyasiz kirish” maxsus rejimi kiritilayotganini, albatta, qoʻllab-quvvatlaymiz. Shuningdek, eʼtibor qaratish kerak boʻlgan baʼzi jihatlar bor. Deylik, tadbirkor bevosita litsenziyaga hujjat topshirdi va uch oy davomida litsenziyasiz faoliyat yuritadi. Bu paytda u qaysi hujjatning kuchiga ishonishi kerak? Bunday vaziyatda ishonchni himoya qilish prinsipi qanday ishlaydi?*



Qonun tashabbuskorlari mazkur savollar yuzasidan atroflicha tushuntirish berib oʻtishdi.

Munozaralardan soʻng qonun loyihasi deputatlar tomonidan birinchi oʻqishda qabul qilindi.

Sogʻliqni saqlashni boshqarishning innovatsion modeli

Majlisda aholiga tibbiy yordamning kafolatlangan hajmiga kiradigan xizmatlarni koʻrsatish, tibbiyot va farmatsevtika xodimlarining kasbiy faoliyatini amalga oshirish tizimini takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasi birinchi oʻqishda konseptual jihatdan koʻrib chiqildi.

Taʼkidlanganidek, keyingi yillarda mamlakatimizda sogʻliqni saqlash sohasida olib borilayotgan islohotlarni chuqurlashtirish, aholiga koʻrsatilayotgan tibbiy xizmatlar sifatini tubdan yaxshilash, tibbiyot muassasalari faoliyatini ilgʻor xorijiy tajriba asosida tashkil etish, tibbiyot va farmatsevtika xodimlarining salohiyatini kuchaytirish borasida keng koʻlamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Mazkur qonun loyihasi bilan “Fuqarolar sogʻligʻini saqlash toʻgʻrisida”gi hamda “Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati toʻgʻrisida”gi qonunlarga birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalarida qoʻshimcha xizmatlar hisoblanadigan tibbiy yordam turlari belgilanishini, shuningdek, davlat roʻyxatidan oʻtkazilgan shaxslar tibbiyot va farmatsevtika faoliyati bilan shugʻullanish huquqini olishini nazarda tutuvchi oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritilmoqda.

Shuningdek, sogʻliqni saqlashni boshqarishning innovatsion modelini joriy etish, tibbiyot va farmatsevtika xodimlarini davlat roʻyxatiga olishning huquqiy asoslari mustahkamlanmoqda. Xususan, tibbiyot va farmatsevtika faoliyati bilan shugʻullanish huquqiga tibbiyot sohasida, oliy yoki kasbiy taʼlim olganlik toʻgʻrisidagi diplom berilgan va davlat roʻyxatidan oʻtkazilgan shaxslar ega boʻlishi belgilanmoqda. Bunda tibbiyot sohasida oliy yoki kasbiy taʼlim toʻgʻrisidagi diplom berilganida yakuniy davlat attestatsiyasining natijasiga muvofiq davlat roʻyxatidan oʻtkaziladi.

Majlisda qonun loyihasi qizgʻin muhokamaga sabab boʻldi.

Qizilgul QOSIMOVA,
OʻzXDP fraksiyasi aʼzosi:

– *Loyiha bilan “Fuqarolar sogʻligʻini saqlash toʻgʻrisida”gi Qonun 41-moddasining beshinchi, yaʼni tibbiyot yoki farmatsevtika faoliyati boʻyicha tugallanmagan oliy maʼlumotli boʻlgan shaxslarning, tibbiyot sohasida oʻrta maʼlumotli boʻlgan xodimlar ishlaydigan lavozimlarda*

ushbu faoliyat bilan shugʻullanishiga Sogʻliqni saqlash vazirligi tomonidan belgilanadigan tartibda yoʻl qoʻyiladi, degan qism chiqarib tashlanmoqda. Buning sababi nimada?

Qonun tashabbuskorlari ushbu masala yuzasidan atroflicha javob berishdi.

Savol-javoblardan soʻng qonun loyihasi deputatlar tomonidan birinchi oʻqishda qabul qilindi.

Fitosanitar zararsizlantirish faoliyati litsenziyalanadi

Majlisda koʻrib chiqilgan navbatdagi hujjat – fitosanitar zararsizlantirish faoliyatini litsenziyalashga qaratilgan qonun loyihasi boʻldi.

Loyiha bilan Oʻzbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qoʻshimcha va oʻzgartirishlar kiritish nazarda tutilmoqda. Mazkur hujjat fitosanitar zararsizlantirish faoliyatini yuridik shaxslar tomonidan litsenziya asosida amalga oshirish tartibini, shuningdek, xalqaro tajriba asosida fitosanitar zararsizlantirish turlarini belgilashga qaratilgan.

Muhokamada taʼkidlanganidek, soʻnggi yillarda ijro organlari tomonidan amalga oshiriladigan ayrim faoliyatlarga xususiy sektorni keng jalb etish, tadbirkorlik subyektlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratish borasida salmoqli ishlar bajarildi. Yangi qonun loyihasi ham ushbu islohotlarning mantiqiy davomi sifatida xizmat qiladi.

Qayd etilganidek, ilgʻor xorijiy mamlakatlarda fitosanitar zararsizlantirishning issiqlik, sovitish, vakuum usullari, ionlashgan radioaktiv nurlanish orqali hamda inson salomatligi va atrof-muhitga salbiy taʼsiri kam boʻlgan kimyoviy vositalardan foydalanish amaliyoti keng yoʻlga qoʻyilgan.

Muhokamadan soʻng qonun loyihasi deputatlar tomonidan birinchi oʻqishda qabul qilindi.

Parlament soʻroviga javob koʻrib chiqildi

Majlisda Turizm qoʻmitasi raisi A. Aqqulovning “Sayyohlar eng koʻp tashrif buyuradigan shaharlarda turizm infratuzilmasini rivojlantirish boʻyicha olib borilayotgan ishlar toʻgʻrisida”gi parlament soʻroviga berilgan javobi koʻrib chiqildi.

Unda keltirilishicha, 2025-yilning 11 oyida mamlakatimizga 10,7 million nafardan ziyod xorijiy sayyohlar tashrif buyurgan. Ularga 4,4 mlrd. AQSH dollari miqdorida turizm xizmatlari koʻrsatilgan. Qoʻshni davlatlar va MDH mamlakatlaridan kelgan sayyohlar soni 2024-yilning shu davridagiga nisbatan 1,1 barobar, uzoq xorij davlatlaridan kelgan sayyohlar soni esa 1,5-marta oshgan.

Shuningdek, oʻtgan yilda “Oʻzbekiston boʻylab sayohat qil” ichki turizmi rivojlantirish dasturi doirasida aholining hududlarga 23,7 milliondan ortiq tashriflari amalga oshirilgan.

Hududlarda jami 954 ta joylashtirish vositasi, jumladan, 128 ta mehmonxona, 506 ta oilaviy mehmon uyi, 268 ta xostel va boshqa turdagi 52 ta joylashtirish obyekti faoliyati yoʻlga qoʻyilgan. Turizm mahallalari va qishloqlari soni 32 taga yetkazilib, turizm va unga yondosh sohalarda 16,1 mingga yaqin yangi ish oʻrinlari yaratilgan.

Turistlar koʻp tashrif buyuradigan joylar, aholi gavjum hududlar hamda avtomobil yoʻllari boʻylab respublika miqyosida 11 mingga yaqin sanitariya-gigiyena shoxobchalarining holati yaxshilangan. Shundan 6 mingdan ortigʻi yangidan barpo etilgan.

Parlament soʻroviga kelgan javobda aytilganidek, davlatimiz rahbarining turizm sohasidagi islohotlarni yanada jadallashtirishga qaratilgan qarori ijrosi doirasida jami qiymati 558,5 mln. AQSH dollarini tashkil etuvchi 56 ta loyiha amalga oshirilib, ular orqali 6 141 ta ish oʻrni yaratilgan.

Galiya RAYXANOVA,
OʻzLiDeP fraksiyasi aʼzosi:



– *Ushbu yoʻnalishda qoʻmita tomonidan muayyan ishlar bajarilgani, albatta, eʼtiborga molik. Shu bilan birga, turizm infratuzilmasini yanada rivojlantirish, turistik yoʻnalishlarni koʻpaytirish, turizm qishloqlari sonini oshirish, yirik shaharlar, tuman markazlari va avtomobil yoʻllari boʻylarida zamonaviy, yengil konstruksiyali sanitariya-gigiyena shoxobchalarini koʻpaytirish ham zarur boʻlib, bu boʻyicha tegishli tavsiyalarni berdik.*

Majlisda mazkur masala yuzasidan doimiy parlament nazorati olib borilishi qayd etilib, Turizm qoʻmitasi raisining javobi maʼlumot uchun qabul qilindi.

“Xalq soʻzi”.

“Har bir oila – tadbirkor” dasturi doirasida aholi va tadbirkorlarga baliqchilik loyihalarini amalga oshirish uchun 50 million soʻmgacha garovsiz kredit ajratiladi.

Har bir narsaning ibtidoi va intihosi bo'lgani kabi insoniyat so'nggi yuz yillar davomida beminnat foydalanib kelgan energiya resurslarining ham o'z chegarasi bor. XX asrning oxiri va XXI asrning dastlabki choragida dunyoning aksariyat mamlakatlari energiya xaziralari tanqisligiga duch keldi. Bu buhron davlatlar oldiga resurslardan tejab-tergab foydalanish va yangi imkoniyatlarni ishlab chiqish vazifasini ham qo'ydi. Shu bois keyingi yillarda lug'atimizda "yashil" energetika, "yashil" iqtisodiyot kabi atamalar paydo bo'ldi. Bu umumdunyoviy jarayon mamlakatimizni ham cheftab o'tmadi.

1 2 3 4 5 6